

# "Ammofos-Maxam" AJ bosh texnologi – "Yil ayoli-2024" respublika ko'rik- tanlovining "O'z kasbining ustasi bo'lgan yil ayoli" nominatsiyasi g'olibi

// 27.12.2024

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/ammofos-maxam-aj-bosh-texnologi-yil-ayoli-2024-respublika-ko>



"Ammofos-Maxam" AJ bosh texnologi Nadejda Volinskaya – "Yil ayoli-2024" respublika ko'rik-tanlovining "O'z kasbining ustasi bo'lgan yil ayoli" nominatsiyasi g'olibi

Bugun Kasaba uyushmalari saroyida "Yil ayoli-2024" ko'rik-tanlovining respublika bosqichi g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Marosimni Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Narbayeva ochib berib, mamlatimizning faol xotin-qizlari va tanlov g'olibalarini tabrikladi.



Quvonarlisi, "Ammofos-Maxam" AJ bosh texnologi Nadejda Volinskaya "O'z kasbining fidoiysi" nominatsiyasida g'olib bo'ldi.

Nadejda Volinskaya - texnika fanlari doktori, ko'plab shogirdlarning ustoz, tashabbuskor, o'z kasbining mohir ustasi, standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat boshqaruvi sohalari bilimdoni. 1976-yildan buyon "Ammofos-Maxam" AJda faoliyat yuritadi. Nadejda Vladimirovna tomonidan ishlab chiqilgan mineral o'g'itlarni ko'p tonnali hajmlarda ishlab chiqarish usullari korxonada tatbiq etilgan bo'lib, bu korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holatini sezilarli yaxshilash imkonini bergan.



"O'zkimyosanoat" AJ jamoasi Nadejda Vladimirovnani ushbu yuksak e'tirof bilan tabriklaydi hamda ulkan muvaffaqiyatlar, mustahkam sog'lik tilaydi.

**"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**